



## **2018 yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar**

Joriy davrda 2258,9 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 139,7% ni tashkil etib, 60,7 %i jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korhona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 39,3%i moliyalashtirildi.

### **Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan**

Respublika byudjeti:  
**48,1 mlrd.so'm**

Davlat maqsadli jamg'armalari:  
**165,7 mlrd.so'm**

Oz'R kafolati ostida xorijiy kreditlar:  
**177,6 mlrd.so'm**

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi:  
**279,3 mlrd.so'm**

### **Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan**

Aholi mablag'i:  
**395,2 mlrd.so'm**

Korhona mablag'i:  
**492,5 mlrd.so'm**

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari:  
**683,5 mlrd.so'm**


To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:  
**17,0mlrd.so'm**

## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalar ning 30,2 %i tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 12,4 %, aholi mablag'i 17,5 %, korhona mablag'i 21,8 %, O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar 7,9 %, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 0,8 %, Respublika byudjeti 2,1 % va Davlat maqsadli jamg'armalari hisobidan 7,3 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

(jami hajmdagi ulushi, %da)




## Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish suratlari




Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish surati 8,2 martta ko'payish Sherobod tumanida kuzatilib ushbu hududdagi yirik investitsiya loyihalaridan sement zavodining qurilishini keltirish mumkin.

### Tumanlarning viloyatdagi ulushi



## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 1466,2 mlrd.so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 662,2mlrd.so'm va boshqa xarajatlarga 130,5 mlrd.so'm o'zlashtirildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Joriy davrda ham asosiy kapitalga investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 1677,0 mlrd.so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 74,2 %ini tashkil etdi. Iqtisodiyotda mavjud ob'ektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta quollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 562,4 mlrd.so'mni tashkil etdi, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 24,9 %ini va qolgan 0,9 %, yani 19,4 mlrd.so'm boshqa harajatlarga yo'naltirildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyatturlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 872,0 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 38,6 %i o'zlashtirilgan. Turar joy qurilishida 457,8 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 20,3 %i, ushbu sohalarga o'zlashtirilgan investitsiyalar boshqa tarmoqqa nisbatan yuqoriligini ko'rish mumkin.


### ***Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar***

Xorijiy investitsiya va kreditlar	2018 yil yanvar-iyun	Ulushi %
	mlrd.so'm	
<b>jami</b>	<b>194,6</b>	<b>100,0</b>
<b>shu jumladan:</b>		
<b>hukumat kafolati ostidagi</b>	<b>177,6</b>	<b>91,3</b>
<b>to'g'ridan-to'g'ri</b>	<b>13,5</b>	<b>6,9</b>
<b>boshqalar</b>	<b>3,5</b>	<b>1,8</b>

Xorijiy investitsiyalar va kreditlar tarkibida eng yuqori 91,3 % ulushi hukumat kafolati ostida kiritilgan investitsiyaga to'gri kelmoqda. Bundan tashqari to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 13,5 mlrd.so'mni jami xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmining 29,6 % ulushni ko'rish mumkin.

## **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar**

**jamiga nisbatan %da**



### **Obyektlarni ishga tushirish**

Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiyligi maydoni 472,2 ming kv.m, bo'lgan 3159 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan bo'lib, ulardan umumiyligi maydoni 341,0 ming kv.m, bo'lgan 2362 tasi qishloq joylarda joylashgan. Namunaviy loyihalar asosida umumiyligi maydoni 0,6 ming kv.m, bo'lgan 5 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushurildi.

*Surxondaryo viloyati  
statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish  
statistikasi bo'limi*

*Nashr uchun mas'ul:  
Sh.Gaipov*

*Aloqa telefoni:  
(0371) 230-85-79*